



Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanidagi badiiy metaforalar tahlili

Boymurodova Marjona O'ral qizi

TerDu 2-bosqich talabasi:

Ilmiy rahbar: **D.A.Ergasheva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada metaforalar haqida ma'lumot va Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanidagi badiiy metaforalar yozilgan.

Kalit so'z: metafora, ma'no, o'z ma'no, ko'chma ma'no, metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa

So'zlarda ikki xil ma'no turi mavjud bo'lib. Birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. Birinchi ma'no turiga keladigan bo'lsak, o'z ma'no so'zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir ma'noni anglatrsa bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan matn ichidagi ma'nosi ikki xil bo'lsa unda bu so'z matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanayotgan bo'ladi. Qanday qilib so'zning o'z ma'noda va ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda oson matn ichidagi so'zlarni yakka holda qo'llab ko'ramiz bunda yuqorida aytganimizdek, matn ichidagi so'z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma'no anglatrsa o'z ma'noda qo'llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma'no anglatrsa ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. Buni sizga bir qancha misollar yordamida tushuntirib berishimiz mumkin. Misol uchun: "Sovuq niyyat qilma do'stim" degan gapdagi "sovuq" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "sovuq" so'zi



havoga, suvga nisbatan o'z ma'noda qo'llaniladi. "Sovuq niyat", "sovuq nafas", "sovuq bashara" bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda "sovuq" so'zi o'z ma'nodan chiqib ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. "Bir sixga qornim to'yib qoldi" bu gapda esa "six" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "six" so'zi yakka holda qo'llanganda six ya'ni temir narsa buyun ma'nolarini anglatadi va u yeyiladigan narsa emas, bu so'z ham yakka holda qo'llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma'nolarni anglatyapti va matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanilyapti. Mana so'zlarning ikki xil ma'nosini o'z va ko'chma ma'nosini va uni qanday qilib topishni o'rganib oldik.¹

O'zbek tilshunosligida ko'chma ma'nolarni o'rganish bo'yicha prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo'jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. M.A. Hamroyev², H. Jamolxonov³, R. Sayfullayevalar⁴ o'zlarining o'quv qo'llanmalarida ma'no ko'chishini to'rt guruhga bo'lganlar. Ko'chma ma'noning keng tarqalgan turi metaforadir. O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi hamda ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Sh.Rahmatullayev metafora ko'chimning boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo.

Har bir yozuvchi badiiy metaforalardan asarlarida unumli foydalanishadi. Chingiz Aytmatov ham o'zining "Qiyomat" romanida badiiy metaforalardan qanchalik foydalangaligini ko'rishimiz mumkin.

1. Qishning qisqa kuni "norasta nafasiday" birpasgina ilib turdi-yu, tog'larning kungay betlarida ko'p o'tmay "hayvonning avzoyi" buzildi, muzliklardan sovuq shamol irg'idi, dara-o'g'irlarga erta tushgan xufton qorong'uligida Shinobu bilan yoyildi, qor-quyunli kechaning izg'irin sovug'i tindi. (1-bet).



2. Tabiatning "bebosh xohshiga" ko'ra, xuddi to'rt tomonga o't ketganday bundan ikki kun burun to'sindan qattiq qorbo'ron ko'rpalari bilan qoplanib yotadi.(1-bet).
3. Yer Uchida neki qimirlagan jonzot bor,bari "yengil nafas" oladi.(5-bet).
4. Tungi "o'lik sukunatga" jon kirdi.(6-bet).
5. Kalxatlar esa, hamon ko'kda parvoz qilguncha, pastda, Mo'yiqumda,kunbotar chog'ida nimalar bo'layotganiga "sovuq nazar" tashlardi.(9-bet).
6. Men shak gumon kuchlari ustun bo'lgan zamonda tug'ildim. Bu shubhalar o'z navbatida yana "yangi shubhalar"ni vujudga keltirdi.(32-bet).
7. "Kecha qurboni", "Sabiylarni tahqirlash","Malikalar nolasi" kabi injil ehtirom va ehtirolari din-iymon yo'lida aziyat va riyozat chekkanlarning "og'ir alangali qo'shiqlar" bilan almashadi.(32-bet).
8. Shuni o'ylaymanki, qo'shiq eshitib o'tirib,birdan "xayolim charaqlab kutganday".(33-bet).
9. Omonlik yo'q.Yigitlar tog' daryosining o'rtasida "tutday to'kiladilar".(33-bet).
10. To'rtinchi kun tong Avondale qorli tog'larning "buried tizmalari" ko'zga chalindi.(49-bet).
11. Kun issiq. Lekin ochiq yuk mashinasining tepasi ancha shabada, oftobning issig'i unchalik bilinmaydi. To'g'ri, "cho'l yo'lining mazasi" yo'q, o'nqir-cho'nqir,chang-to'zon.(53-bet).
12. Osmonda oftob saxovat bilan nur sochadi,havo issiq, allaqnday qushlar pir-pirlab uchishadi...(58-bet).
13. Shunda kutilmaganda u o'zini "yengil parvoz" qilayotgandek hayoli ko'klarda havolanayotgan edi.(58-bet).



14. Xuddi shu narsa Avdiyning "dilini qitiqlab"yubordi-da, boshqa hamma narsani unutib , ularni o'z oldiga erkalab, avrab, qiziqtirib chaqira boshladi.(58-bet).
15. "Adolat saltanati" tuzamiz. Unda "qaysarlar zo'ravonligi" bo'lmaydi.(88-bet).
16. Qiyomat, mana idrokning intihosi, aqilli xilqatning itmomi...(90-bet).
17. Yomg'ir "saxiylik bilan" sharros solib quyar, suv tepadan Avdiy yotgan chuqurga sharqirab oqib tushar edi.(93-bet).
- 18.Bu safar ham, "tafakkurning o'lchovsiz uzunligi"da u "o'tmish ichi"ga o'zidan necha zamonlar oldin bo'lib o'tgan voqealarga ular xuddi hozir ro'y berayotgandek, kirib bordi.(95-bet).
19. Shu yerda u "dunyoning buqlamunliklari" haqida "o'y surardi".(96-bet).
20. Murabbiy, sen, inson "yaxshilik va muruvvat yo'li"ga kirsin deb og'ir jazoni bo'yningga olding.(96-bet).
21. Inson yer yuzida qiynalib yashaydi, unda "yomonlik tomirlari" juda chuqur ildiz otgan.(96-bet).
22. Sen G'offari Olamsan,"ko'ngillarimizga muhr bosma",jaholatda qoldirma, toki yaxshilik va yomonlik yorug' olamda birga mavjud ekan, bizni "bahonai sabab zanjirlaridan" xalos et.(99-bet).
23. Atrofga "olazarak nazar" tashlab,Avdiy kulib yubordi.(100-bet).
24. "Jimlik cho'kdi" Avdiy Kallistratov og'irligini dam u oyog'iga , dam.bu oyog'iga solib, ketishga shoshilmasdi.(104-bet).
25. Joyim o'sha yerda!- Avdiyaning "chehrasi lovullab yonar" ,yana uning qattiq chehrasida qattiq jazava tutgandi.(104-bet).



Metafora so'zning o'z ma'nosida emas, boshqa ma'noda kelishini tushinishimiz mumkin. Bir predmetning ifoda etgan ma'nosini ikkinchi predmetda to'g'ridan to'g'ri o'xshash bo'lgan belgisini nomdosh qilib olishi mumkin. Bu predmetlar o'rtasidagi o'xshashliklar ularning sirtqi belgisi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarda asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilida-ma-no-kochish-usullari-metafora-metanomiya-sinekdoxa-vazifadoshlik>
2. Hamroyev M. A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. –Toshkent, 2006. –B. 45.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. –B. 266-269.
4. Sayfullayeva R. Va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. –B. 108-110.